



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024-yil 7-avgust

222-5-0-Q/24

Navoiy viloyati hokimligi

XDFU

Viloyat hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” davlat dasturi, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlarida viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini ta’minlash, hokimlik boshqaruv apparatida ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2024-yil 22-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 77-sonli (XDFU) bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta’minlash viloyat hokimi o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi boshqaruv apparati bo‘linmalari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) hokimlarining asosiy ustuvor vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan saylovoldi dastur hamda hududlarda saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar doirasida ilgari surilgan tashabbuslar;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi;

ijro intizomini mustahkamlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining

shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni;

“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori;

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifidagi uchrashuvlar va yig‘ilishlaridagi ma‘ruzalarida;

Viloyat hokimligining Davlatimiz rahbari huzuridagi hisobotlari bo‘yicha

2024-yil va kelgusi yillar uchun topshiriqlar bayonnomalarida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, yig‘ilish bayonlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining

2024-yil II yarim yillik uchun ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

3. Viloyat hokimligida 2024-yilning II yarim yilligida o‘tkaziladigan majlislar rejasini 1-ilovaga;

viloyat hokimligining 2024-yil II yarim yilligi uchun ish rejasini 2-20-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (R. Sulaymonov, E. Kamolov, E. G‘afforov, S. Hikmatov, J. Xodjayev, E. Mardonov, S. Mirzayev, M. Mamadiyarova), yordamchilari, maslahatchilari, guruh va tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari:

2024-yil II yarim yillik ish rejasida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini, ish rejani bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borilishini va qat‘iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin;

har oylik shaxsiy ish rejasini tasdiqlash va uning bajarilishini tahlil qilib borilishini davom ettirsin;

doimiy va tizimli asosda hokimlik apparatida va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomi holatini (ishlab chiqilgan jadvalariga muvofiq) tanqidiy o‘rganib muhokama etsin;

2024-yil II yarim yilligida Vazirlar Mahkamasi Rayosatining viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlab o‘tkaziladigan majlislariga puxta tayyorgarlik ko‘rilishini ta‘minlasin;

2024-yilning 15-yanvariga qadar viloyatdagi korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda shahar, tuman hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil II yarim yillik ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni va 2025-yil I yarim yillik ish rejasini

loyihasiga takliflarni viloyat hokimligi Ijro intizomi nazorati bo'limiga taqdim etish topshirilsin.

5. Viloyat hokimligi Ijro intizomi nazorati bo'limi (Sh. Namozov) tegishli mas'ullar bilan birgalikda viloyat hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasi bajarilishi monitoringini yuritsin va har oy yakuni bilan viloyat hokimiga axborot kiritib borsin.

6. Viloyat hokimining o'rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, kotibiyat mudirlariga:

viloyat hokimligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlasin va har oy yakuni bilan keyingi oying

5-sanasigacha bajarilishi yuzasidan tegishli ma'lumotlarni viloyat hokimligi Ijro intizomi nazorati bo'limiga taqdim etib borish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (edo.ijro.uz) orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o'z muddatida sifatli va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirilishiga alohida e'tibor qaratish;

2024-yil II yarim yillik ish rejasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish choralarini ko'rish;

komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar, tuman hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejalarini tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish vazifalari topshirilsin.

7. Shahar va tuman hokimlari, boshqarma, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari

bir hafta muddatda mazkur qarorda hamda qaror bilan tasdiqlangan ilovalarga muvofiq 2024-yilda belgilab berilgan vazifalarni bajarish bo'yicha ishga solinmagan zaxiralarni safarbar etishga va qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e'tiborni qaratgan holda 2024-yilning II yarim yillik ish rejalarini ishlab chiqib, tasdiqlasin.

8. Belgilab qo'yilsinki, viloyat hokimining o'rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, tarkibiy bo'linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo'yilgan vazifa va masalalarning o'z vaqtida to'liq bajarilishini ta'minlash bo'yicha shaxsan mas'uldirlar.

9. Mazkur qaror topshiriqlari ijrosining nazorati viloyat hokimining o'rinbosarlari va viloyat hokimligining tarkibiy bo'linma rahbarlari zimmlariga yuklansin.

Viloyat hokimi

Viloyat hokimi



N. Tursunov

N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 7-avgustdagi
222-5-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Viloyat hokimligida 2024-yilning II yarim yilligida o'tkaziladigan
MAJLISLAR REJASI**

T/p	Муҳокама мавзуси	Бажариш муддати	Масъуллар
1	Joriy yil 1-sentabr - Mustaqillik kuni bayrami tadbirlarini mahallalar darajasida tashkil etish va yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha ko'rilayotgan choralar hamda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar to'g'risida. <i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-son qarori.</i>	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (S.Mirzayev), Madaniyat boshqarmasi (N.Niyozov), Tuman (shahar) hokimlari
2	Mahallalar infratuzilmasini yanada rivojlantirish dasturlari asosida amalga oshirilgan loyihalar natijadorligi to'g'risida.	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov) Tuman (shahar) hokimlari
3	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha Respublika komissiyasi majlisida 2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shakllantirish bo'yicha tayyorlangan takliflar muhokamasi. <i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qarori.</i>	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov)

			Tuman (shahar) hokimlari
4	Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlik doirasida amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar yakunlari bo'yicha tasdiqlangan “Yo'l xaritalari” ning ijrosini ta'minlash to'g'risida.	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.G'afforov) , Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (U.Bahriddinov), Tuman (shahar) hokimlari
5	Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va energetika sohasi ob'ektlari hamda ko'p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar to'g'risida.	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov) , Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov) Tuman (shahar) hokimlari
6	“Yangi O'zbekiston” massivlarini qurish hamda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida ko'rilayotgan chora- tadbirlar to'g'risida.	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov) , Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Tuman (shahar) hokimlari
7	2024-yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlarini tashkil etish to'g'risida.	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov) , Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Tegishli korxonalar va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimlari
8	2024/2025-o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish, yangi baholash tizimi joriy qilinadigan 1000 ta maktabda zarur sharoit yaratish,	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (J.Xodjayev) ,

	maktab o'quvchilarini ikkinchi xorijiy til va kasb-hunarga o'rgatish uchun tegishli sharoitlarni yaratish va ularga tajribali mutaxassislarni jalb etish hamda hududlardagi pedagogik mahorat markazlarini faoliyatini takomillashtirish va ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligiga oid vazifalar to'g'risida.		Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (R.Hayitova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (F.Tuxtayev) Tuman (shahar) hokimlari
9	Jamoatchilik fikri asosida shakllangan "Tashabbusli budjet" loyihalari va qo'shimcha ajratilgan mablag'lar hisobidan tuman (shahar) hokimliklari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, Avtomobil yo'llari oshqarmasi, "Navoiysuvta'minot" MCHJ tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va ko'rilayotgan choralar natijadorligi to'g'risida.	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R.Sualaymonov, E.Kamolov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Teishli korxonalar va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimlari
10	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar qurilishi ishlarini muvofiq lashtirish bo'yicha respublika shtabi majlisida maktabgacha va maktab ta'limi ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jixozlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar holati to'g'risida. <i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-fevraldagi PQ-65-son qarori.</i>	Avgust	Viloyat hokimining o'rinbosari (J.Xodjayev), Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (R.Hayitova), Tuman (shahar) hokimlari
11	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.	Avgust	Viloyat hokimligi Ijro nazorati bo'limi (Sh.Nomozov), Adliya boshqarmasi (U.Abdullayev)
12	2024-yil investitsiya dasturining ijrosini ta'minlash bo'yicha tuman (shahar) hokimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.	Sentyabr	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.G'afforov), Investitsiyalar, sanoat va savdo

			boshqarmasi (U.Bahriddinov), Tuman (shahar) hokimlari
13	Viloyatda aholining ichimlik suv ta'minotini va oqova suv tizimini yaxshilash, sohada davlat-xususiy sheriklik va ijtimoiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish, sohaga zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.	Sentyabr	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov) , "Navoiy suv ta'minoti" MCHJ (O.Zaripov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Tuman (shahar) hokimlari
14	Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va energetika sohasi ob'ektlari hamda ko'p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar to'g'risida.	Sentyabr	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov) , Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G.B'oboqulov) Tegishli korxonalar va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimlari
15	Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida ishlar samaradorligini oshirish, boshqaruv kompaniyalari faoliyatini jonlantirish bo'yicha tuman (shahar) hokimliklari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan ko'rilayotgan choralar natijadorligi to'g'risida.	Sentyabr	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov) , Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Tuman (shahar) hokimlari
16	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 25-iyundagi PQ-234-son qarori ijrosini tashkil etish	Sentyabr	Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov) , O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi

	bo'yicha tuman (shahar) hokimliklari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan ko'rilayotgan choralar natijadorligi to'g'risida.		(G'.Aliyev) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Tuman (shahar) hokimlari
17	Viloyat markazlarida 21-oktabr - “O'zbek tili bayrami kuni” ga bag'ishlangan tantanali bayram tadbirlarini nishonlashni tashkil etish to'g'risida.	Sentyabr	Viloyat hokimining o'rinbosari (S.Mirzayev) , Viloyat hokimining maslahatchisi (Q.Astonov), Madaniyat boshqarmasi (N.Niyozov) Tuman (shahar) hokimlari
18	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-59-son Farmoni ijrosini yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov) , Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi viloyat filiali (F.Mardonov) Tuman (shahar) hokimlari
19	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2022-yil 21-sentabrdagi PQ-376-son qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, M.Mamadiyarova) , Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi viloyat filiali (F.Mardonov) Tuman (shahar) hokimlari

20	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ 2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ” 2023-yil 25-dekabrda PQ-404-sonli qarori bilan 2024-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan irrigatsiya va melioratsiya ob‘ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va tiklash bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini so‘zsiz ta‘minlash to‘g‘risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining o‘rinbosari (S.Hikmatov) , Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Quyida Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov) Tuman (shahar) hokimlari
21	Yo‘l xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy tizimini yaratish va raqamlashtirish, sohada sifat nazoratini kuchaytirish va xususiy sektor korxonalarini keng jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.Kamolov) , Avtomobil yollari bosh boshqarmasi (A.Halimov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Niyozov), Tuman (shahar) hokimlari
22	Fransiya, Germaniya, Chexiya Respublikalariga amalga oshirilgan oliy va yuqori darajadagi tashriflar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xaritalari”ning ijrosi ta‘minlash bo‘yicha boshqarmalar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari hamda tuman (shahar) hokimliklari rahbarlarining shaxsiy mas‘uliyati to‘g‘risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.G‘afforov) , Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo boshqarmasi (U.Bahriddinov), Tuman (shahar) hokimlari
23	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sir ini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida ” 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son Farmoni bilan belgilab berilgan vazifalarning joylarda ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.Kamolov) , Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Ergashev), Tuman (shahar) hokimlari
24	Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari	Oktyabr	Viloyat hokimining maslahatchisi

	bo'yicha respublika komissiyasi majlisida geografik ob'ektlarga nom berish masalalari to'g'risida.		(Q.Astonov) , Kadastrlar agentligi viloyat boshqarmasi (D.Nishonov), Tuman (shahar) hokimlari
25	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining“2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 9-yanvar PQ-7-son qarori ijrosi yuzasidan vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning mas'uliyati to'g'risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov) , Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), Tuman (shahar) hokimlari
26	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni ijrosini ta'minlashda tegishli vazirlik, idoralar va mahalliy hokimlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.	Oktyabr	Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov) , Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (A.Rashidov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), Tuman (shahar) hokimlari
27	Rossiya Federatsiyasiga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar yakunlari bo'yicha tasdiqlangan “Yo'l xaritalari”ning ijrosini ta'minlash bo'yicha boshqarmalar, idoralar va xo'jalik birlashmalari hamda tuman (shahar) hokimliklari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati to'g'risida.	Noyabr	Viloyat hokimining o‘rinbosari (E.G'afforov) , Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo boshqarmasi (U.Bahriddinov), Tuman (shahar) hokimlari
28	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligi bayramiga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash chora-tadbirlari to'g'risida.	Noyabr	Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (J.Xodjayev, S.Mirzayev) , Adliya boshqarmasi (U.Abdullayev), Madaniyat boshqarmasi (N.Niyozov), Tuman (shahar) hokimlari

29	<p>Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni hamda Misr Arab Respublikasiga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrillar yakunlari bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritalari" ning ijrosi ta'minlash bo'yicha korxonalar, idoralar va xo'jalik birlashmalari hamda tuman (shahar) hokimliklari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati to'g'risida.</p>	Noyabr	<p>Viloyat hokimining o'rinbosari (E.G'afforov), Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo boshqarmasi (U.Bahriddinov), Tuman (shahar) hokimlari</p>
30	<p>"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024-yilning kuzgi ko'chat ekish mavsumida amalga oshirilgan ishlarning natijadorligi to'g'risida.</p>	Dekabr	<p>Viloyat hokimining o'rinbosari (E.Kamolov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (R.Ergashev), Tuman (shahar) hokimlari</p>

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 7-avgustdagi
222-5-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari,
Iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari kotibiyatining 2024-yil II yarim yillikka mo'ljallangan**

I S H R E J A S I

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar: <i>Viloyat hokimligi tarkibiy bo'linma, hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shahar va tuman hokimliklari rahbarlari va mutaxassislari.</i>
“O‘zbekiston-2030” strategiyasi va uni amalga oshirish buyicha tegishli yillik dasturlar hamda viloyat hokimligining yaqin muddatga va uzoq muddatga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar to‘risida			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi ““O‘zbekiston-2023” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-3-sonli Farmoniga muvofiq “O‘zbekiston-2023” strategiyasini 2024-yilda amalga oshirish yuzasidan belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	2024-yil II yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlar ijrosini ta'minlash hamda mutasaddi boshqarma, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan sifatli bajarilishi bo'yicha muntazam monitoring olib borish.	2024-yil II yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 17-iyul kuni bo‘lib o‘tgan hududlar va tarmoqlarda o‘sish sur‘atlarini ta'minlash bo'yicha 2024-yil birinchi yarim yilligi tahlili va yil	Iyul- dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov,

	yakuniga qadar ustuvor vazifalar to'g'risidagi videoselektor yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini sifatli va o'z vaqtida ta'minlash.		O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
4.	Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizim orqali onlayn monitoring qilishni qo'ylga qo'yish bo'yicha taklif ishlab chiqish.	2024-yil avgust	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
5.	“Tashabbusli byudjet” doirasidagi loyihalarni tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarning ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga qabul qilish tartibini joriy etish. Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish.	2024-yil aprel	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
6.	2024-yil 1-sentyabrdan boshlab pensiya tayinlashda bir vaqtning o'zida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varag'idagi pulni olish bilan bog'liq harakatlarni proaktiv tarzda amalga oshirish, nogironlikni belgilashda esa, nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan imtiyozlar to'g'risida xabardor qilish tartibini joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.	2024-yil avgust	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
7.	Samarqand viloyati Samarqand tumani misolida ihtsiz aholining aniqlashning yangi mexanizmini ishlab chiqishga takliflarni ishlab chiqish.	2024-yil avgust	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
8.	Belgilangan soliq tushumi prognozlari doirasida tushumlar tushishi hamda qo'shimcha manbalarni aniqlanishi va davlat byudjetiga undirilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning 2024-yil I yarim yilligida bajarilishini tahlil qilish va II-chorak yakuni bilan erishiladigan natijalar.	Har chorakda	Viloyat Soliq boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shahar (tuman) hokimliklari. B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov
9.	Bozorlarda yangi ishtirokchilarning kirib kelishidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish orqali raqobatni rivojlantirish. Raqobatni	2024-yil II yarim	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari

	cheklovchi mutlaq (eksklyuziv) huquqlarni bekor qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.	yillik	B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
10	Byudjet sohasiga oid huquqbuzarlik va moliyaviy xatoliklar vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning (risk) umumlashgan yagona tasnifini tasdiqlash va kelgusida bunday xatoliklarning oldini olish yuzasidan jamoat nazoratini o'rnatish hamda ochiqlikni ta'minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaroriga takliflarni ishlab chiqish.	2024-yil oktyabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
11	Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida biznes uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish maqsadida “Biznesni qo'llab-quvvatlash dasturi” doirasida 2024-yil yakuniga qadar: kompleks qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali 60 ming aholini biznesga jalb qilish; yangi ish o'rinlarini yaratish orqali 136,7 ming aholining bandligini ta'minlash uchun zaruriy choralarni ko'rish.	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
12	Tovarlar va xizmatlar bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlash orqali yillik inflatsiya darajasining 2024 yil 8-9 foizdan oshmasligini ta'minlash.	2024-yil II yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
13	Kambag'al oilalarning muammolarini hal etish orqali viloyatda kambag'allik darajasini kamaytirish.	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
14	Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ishsiz aholini ishga joylashtirishga ko'maklashish. Band bo'lmagan shaxslar, kambag'al oilalarning ishsiz a'zolarini va yoshlarni amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish orqali ularning bandligiga ko'maklashish.	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
15	Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining 2024-yilda YAIM	2024-yil	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot

.	nisbatan 4 foizdan oshmasligini ta'minlash.	dekabr	va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
16	O'zbekiston Respublikasi qonunosti hujjatlari bilan joriy etilgan majburiy to'lovlar va yig'imlar ro'yxatini shakllantirish va ularni yagona qonun hujjati darajasida belgilash bo'yicha qonun loyihasiga takliflar ishlab chiqish.	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
17	Yangi tahrirda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 8-maydagi PF-67-sonli Farmonida iqtisodiyot tarmoqlari, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash.	2024-yil II yarim yillik	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
18	"2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ajratiladigan byudjet mablag'lari parametrlari bajarilishini nazorat qilish.	2024-yil II yarim yillik	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
19	Iqtisodiy drayver tarmoqlari uchun mineral-xomashyo bazasi zaxiralarini ko'paytirish.	2024-yil II-yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
20	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijro holatini " Ijro.gov.uz " tizimida tahlil qilish.	Har oyda har chorakda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
21	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi " 2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida "gi PQ-7-sonli qarorida	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov,

	belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash.		O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
22	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-200-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini tahlil qilish.	2024-yil sentyabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
23	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-fevraldagi iqtisodiy siyosatning asosiy 11 ta yo'nalishlari bo'yicha topshiriqlarning ijrosiga mas'ul boshqarmalar va idoralar tomonidan o'z vatqida bajarishini nazorat qilish.	2024-yil II-yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov,
24	Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun viloyat bo'yicha yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish.	2024-yil II-yarim yillikda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov,
25	Hududlarda savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirish maqsadida bo'sh yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish.	2024-yil may oyi	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
26	Kadastr agentligi faoliyatida Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosbati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, bazilarini o'z kuchini yuqotgan deb hisoblash to'g'risida” 2024-yil 15-maydagi 282-sonli qarori ijrosini o'rganish.	2024-yil noyabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
27	Iqtisodiy kompleksga kiruvchi korxonalar (tashkilot)lar rahbarlari tomonidan 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarida (KPI) belgilangan rejalarning ijrosini ko'rib chiqish.	Har chorakda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov
28	Bank tizimida yuzaga kelgan muammoli kreditlarning tizim barqarorligiga ta'siri va muammoli kreditlarni kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Har chorakda	Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi, tijorat banklari, shahar (tuman) hokimliklari. B.N.Sayfiddinov, O.A.Nurmamatov

29	Ichki bozorda narxlar barqarorligini saqlash va aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida.	2024-yil noyabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
30	Korxonalar va tashkilotlar hamda mahalliy hokimliklar tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda raqobat qonunchiligi talablariga rioya qilinishi to'g'risida.	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
31	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida tizimli ishlarni tashkil etish.	Har oyda	Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi, tijorat banklari, shahar (tuman) hokimliklari. B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov
32	Tadbirkorlik sub'yektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni maqbullashtirish hamda ularning samaradorligini ta'minlash.	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
33	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida	Har oyda	Viloyat Soliq boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shahar (tuman) hokimliklari. B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov
34	Aholi daromadlarini oshirish va ularning bandligini ta'minlash, zaxira va imkoniyatlarni ishga solish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida.	2024-yil avgust	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
35	Soliq ma'murchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida.	Xar oyda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov
36	O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha viloyat komissiyasi faoliyati to'g'risida	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari

			B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov
37	2024-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlarida belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari ijrosini ta‘minlash choralari ko‘rish.	2024-yil II-yarim yillik	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
38	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 252-sonli qarori kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	2024-yil dekabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
39	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyuldagi “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub’yektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-93-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 279-sonli qarorining joylarda ijrosini ta‘minlashini hamda mas‘ul korxonalar (tashkilot)larning mas‘uliyati to‘g‘risida.	2024-yil oktyabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
40	Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini hududlardagi “Ishga marhamat” monomarkazlarida kasb-hunarga o‘qitib, ularni munosib ish o‘rinlari bilan ta‘minlash va o‘zini-o‘zi band qilish imkoniyatlarini yaratish choralari ko‘rish.	Har chorakda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
41	Xorijiy davlatlarda ishlash istagida bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga o‘qitish borasidagi ishlarni amalga oshirilishini tahlil qilish.	2024-yil oktyabr	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, O.A.Nurmamatov
42	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi	Har	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot

.	“2023-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarorida belgilangan vazifalar bajarilishini o‘z vaqtida sifatli ta‘minlash.	chorakda	va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
43.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-fevraldagi “Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-70-sonli qarorida belgilangan vazifalar bajarilishini o‘z vaqtida sifatli ta‘minlash.	Har oyda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
44.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faolyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-31-sonli qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida sifatli bajarilishini ta‘minlash.	Har chorakda	Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, shahar, tuman hokimliklari B.N.Sayfiddinov, Sh.M.Aminjonov, O.A.Nurmamatov, A.M.Qodirov
45.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-104-sonli qarorida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash.	Har chorakda	Viloyat Iqtisodiy va moliya bosh boshqarmasi, masalaga aloqador korxonalar (tashkilot)lar, shahar (tuman) hokimliklari. B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov
46.	Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning 2024-yil II yarim yillikda bajarilishini tahlil qilish.	2024-yil II-yarim yillik	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, viloyat Statistika boshqarmasi, shahar (tuman) hokimliklari. B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov
47.	Aholining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning daromadlarini oshirish, shuningdek, “Bir hudud-bir mahsulot” tamoyili asosida aholiga uzoq muddatli ijaraga yer ajratish orqali bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini tahlil qilish.	Har chorakda	Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shahar (tuman) hokimliklari. B.N.Sayfiddinov, A.M.Qodirov

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 7-avgustdagi
222-5-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari kotibiyatining 2024-yil II yarim yillik

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar <i>(viloyat hokimligi tarkibiy bo‘linmalari, korxonalar va tashkilotlar, shahar, tuman hokimliklari)</i>
1	“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 2024-yil - “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini tashkil etish: har oyda viloyat hokimi o‘rinbosari huzurida muhokama qilib borish; korxonalar va tashkilotlarni jalb qilgan holda normativ-huquqiy hujjatlarga takliflar ishlab chiqilishini tashkil etish.	iyul- dekabr	Kotibiyatga biriktirilgan korxonalar va tashkilotlar, Shahar, tuman hokimliklari Sh.Hamidov, M.Safarov, Sh.Hasanov, Sh.Tursunov
2	Respublikasi Prezidenti raisligida 2024-yil 17-iyul kuni bo‘lib o‘tgan hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘rnatish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha 2024-yil birinchi yarim yilligi tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi videoselektor yig‘ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash.	iyul- dekabr	Kotibiyatga biriktirilgan korxonalar va tashkilotlar, Shahar, tuman hokimliklari Sh.Hamidov, M.Safarov, Sh.Hasanov, Sh.Tursunov
3	Avtomobil yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalar holatini yaxshilash: Viloyatdagi 262,0 km umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash; 800,5 km shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini ta‘mirlash; ta‘mirlalab 12 dona ko‘priklarni tiklash.	iyul- dekabr	Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Shahar, tuman hokimliklari

			Sh.Hamidov, Sh.Tursunov
4	<p>Avtomobil yo‘llarida transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatini ta’minlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish:</p> <p>Viloyat markazida tajriba-sinov tariqasida piyodalar o‘tish yo‘laklariga zamonaviy yoritgichlar o‘rnatish;</p> <p>aholi punktlarida piyodalar harakatlanishi uchun 32,0 km piyodalar yo‘laklarini barpo etish;</p> <p>11 dan ortiq svetofor obektlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish;</p> <p>avtomobil yo‘llarida 1,3 mingdan ortiq yo‘l belgilarini o‘rnatish.</p>	iyul-dekabr	<p>Transport boshqarmasi, Ichki ishlar boshqarmasi, Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Shahar, tuman hokimliklari</p> <p>Sh.Hamidov, Sh.Tursunov</p>
5	<p>Tajriba-sinov tariqasida viloyatda autsorsing asosida jalb qilingan tadbirkorlik subektlari tomonidan uzunligi 20 km gacha bo‘lgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish ishlarini sifatli tashkil etish.</p>	iyul-dekabr	<p>Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Shahar, tuman hokimliklari</p> <p>Sh.Hamidov, Sh.Tursunov</p>
6	<p>Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarni energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholashni tashkil etish. Bunda:</p> <p>Ko‘p kvartirali uylardagi xonadonlarning energiya samaradorligini baholash tartibini ishlab chiqish;</p> <p>baholash tartibi asosida ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash bo‘yicha qisqa va o‘rta muddatli chora-tadbirlar rejalarni ishlab chiqish.</p>	avgust sentyabr	<p>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, Sh.Hamidov, Kotibiyat mutaxassislari</p>
7	<p>Aholiga qulaylik yaratish hamda ko‘rsatilayotgan xizmatlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ko‘p qavatli turar</p>	avgust	<p>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi,</p>

	<p>joy xonadonlarining tabiiy gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti, ichimlik va oqova suv hamda chiqindilarni olib chiqish xizmatlari kabi kommunal to'lovlarini birlashtiruvchi yagona to'lov tizimini joriy etish.</p> <p>Bunda:</p> <p>Yagona to'lov tizimining ishlashini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>Yagona to'lov tizimini ishga tushirish hamda monitoring qilish imkoniyatini yaratish;</p> <p>Yagona to'lov tizimini tajriba-sinov tariqasida Navoiy shahrida joriy etish.</p>	<p>sentyabr</p> <p>oktyabr</p>	<p>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotilari, Sh.Hamidov, Kotibiyat mutaxassislari</p>
